
Farg'ona shahardagi maktablarda «Yashil makon» loyihasi doirasida keng ko'lamli ishlar bajarilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan «YaSHIL MAKON» umummilliy loyihasida Farg'ona shahar xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi maktablar ham faol qatnashmoqdalar.

Ta'lim muassasalarining bo'sh turgan maydonlariga mevali va manzarali daraxt ko'chatlari hamda qalamchalari ekilmoqda. Maktablarning hovlisiga mavsumiy va manzarali gullar o'tqazilmoqda. Yo'laklar chetlari, daraxtlar oqlanib, butalmoqda. Ayni kunga qadar shahar xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi maktablarda 5 ming tupdan ziyod mevali va manzarali darax ko'chatlari ekildi.

Loyiha doirasida faol qatnashayotgan xodimlari milliy ana'nalarimiz asosida chalpaklar, xolvaytarlar tayyorlashib, ezgu tilaklar bildirishmoqda.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-06 09:52:56